



O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORINING TARAQQIYOTI VA MUAMMOLAR

Mamajanov Nodirbek Shuxratjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi bank-moliya

akademiyasi tinglovchisi

Tel: +998 99 970-58-07

Annotasiya: Mazkur maqolada bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, jumladan, sug'urta sohasini tartibga solish, mazkur sohadagi muammolar hamda uni takomillashtirish tizimini samarali tashkil etish va ularning tahlilini amalga oshirish, yo'llarini ko'rsatish borasida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: sug'urta, sug'urta bozori, sug'urtalovchi, sug'urtalanuvchi, innovatsiya, raqobat, moliya.

Аннотация: В данной статье описаны реформы, которые проводятся сегодня в нашей стране, включая регулирование страховой сферы, проблемы в этой сфере и эффективную организацию и анализ системы ее совершенствования.

Ключевые слова: страхование, страховой рынок, страховщик, страхователь, инновации, конкуренция, финансы.

Abstract: This article describes the reforms that are being carried out in our country today, including the regulation of the insurance sector, the problems in this sector and the effective organization and analysis of the system for its improvement.

Key words: insurance, insurance market, insurer, insured, innovation, competition, finance.

KIRISH

Bugungi kunda sug'urta kompaniyalari tomonidan nafaqat mamlakatimizdagi, balki xorijiy mijozlarni ham ishonchini qozona oladigan sug'urta xizmatlarining keng turlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, mintaqaviy sug'urta xizmatlarini kengaytirish, sug'urta kompaniyalari moliyaviy resurslarini samarali boshqarish milliy sug'urta bozorini rivojlantirishdagi asosiy muammolardan biridir. Bu holat mazkur mavzuning dolzarbligini ifodalaydi. Sug'urta insoniyat tarixining tadrijiy rivojlanishi bosqichlarida moliyaviy munosabatlarning ajralmas tarkibiy qismi sifatida iqtisodiyotga ta'sir etuvchi muhim omil bo'lib kelgan.

Iqtisodiy islohotlar sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqdaki, buni e'tiborga olgan holda sug'urta va lizing hamda boshqa moliyaviy xizmatlar hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobidan kengaytirish, shuningdek, kapitalni jalb qilish hamda moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.



Jumladan, “2022-2026-yillarga mo’ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi”¹da qishloq xo‘jaligida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash ko‘lamini kengaytirish va sug‘urtalashning yangi mexanizmlarini amalga oshirish hamada mehnat migrantlarini moliyaviy va ijtimoiy qo‘llabquvvatlash, ularning hayoti va sog‘lig‘ini sug‘urtalash amaliyotini kengaytirish masalasiga e’tibor qaratilgan.

Zamonaviy davrdagi globallashtirish jarayonida sug‘urta bozorining innovatsion rivojlanishi jadal o‘zgarishlar qamrovida kechayotganligi mazkur institut faoliyatini nazariy-amaliy tadqiq etish dolzarb ekanligini anglatadi. Sug‘urta bozori har qanday mamlakat iqtisodiyotining asosiy segmenti hisoblanadi, ayni vaqtda, bevosita uning ravnaqiga ham xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda qayd etish lozimki, sug‘urta faoliyati o‘ziga xos tarzda shakllangan va keng qo‘llanilayotgan ijtimoiy hodisa bo‘lib, barqarorlik omili sanaladi. Mamlakat sug‘urta bozori rivojini prognozlash o‘z navbatida, biznes sub’ektlari va aholi manfaatlari himoyasini kafolatli darajada ta’minlash instituti sifatida sug‘urta faoliyatini rivojlantirish yo‘nalishlarini tadqiq etish zaruratini keltirib chiqardi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:

Yurtimizda sug‘urta bozorini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar va chora-tadbirlar muayyan darajada, mamlakat sug‘urta bozorini rivojlantirishga xizmat qilayotgan bo‘lsada, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etayotgan sharoitda sug‘urta bozorini rivojlantirish borasida aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish sug‘urta munosabatlarini rivojlantirishga va mamlakatda ishlab chiqarish uzluksizligini ta’minlashga xizmat qiladi. Ma’lumki, sug‘urta bozorining muhim sub’ekti va uning ishtirokchilaridan biri davlat hisoblanadi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 27-noyabrdagi 413-sonli Qarori sug‘urta faoliyatida muhim yangilik bo‘ldi. Ilk bor sug‘urtalovchilarning ustav kapitaliga eng kam miqdorlar belgilandi. Sug‘urtalovchilar va sug‘urta brokerlarining sug‘urta faoliyatini litsenziyalash to‘g‘risida nizom, sug‘urta faoliyati klassifikatori tasdiqlandi. Ushbu qaror sug‘urta bozorini yanada rivojlantirish, raqobatni kuchaytirish, sug‘urta faoliyatining zamonaviy va yangi turlarini yaratish, sug‘urtalovchilarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, ularning hududiy tarmoqlarini kengaytirish va sug‘urtani nazorat qilish shakllarini takomillashtirish bo‘yicha muhim hujjat bo‘ldi².

Sug‘urta bozori rivojlanishining nazariy va amaliy jihatlarini xorijlik iqtisodchi olimlar A.Aleksandrov, A.Arkipov, Yu.Axvlediani, V.Belix, I.Balabanov, S.Beryozina, A.Vagner, F.German, B.Gomellya, E.Krositalar tomonidan tadqiq etilgan.

Mamlakatimizda sug‘urta faoliyati va sug‘urta bozori rivojlanishining yo‘nalishlari iqtisodchi olimlar M.Asqarova, G.Axunova, H.Boyev, T.Boymurotov, O.Jo‘rayev, Sh.Imomov, M.Mirsodiqov, A.Nurullayev, Y.Tursunov, M.Xodjayeva, A.Shermuhamedov, X.Shennayev, R.Husanov, A.Yadgarovlarning ilmiy ishlarida tahlil qilingan.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan.

² O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining VM- 413-son Qarori 27.11.2002



Tadqiqot metodologiyasi:

Mazkur maqolada O'zbekistonda sug'urta faoliyati va uni takomillashtirish tizimini tubdan isloh etish borasida amalga oshirilayotgan keng – ko'lamli amaliy ishlar tahlil qilingan. Mazkur tahlil jarayonini yanada tushunarli va aniq bo'lishi uchun maqolada chizmalar va jadvallar usulidan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi:

Sug'urta tizimini tartibga solish maqsadida O'zbekiston Respublikasining “Sug'urta faoliyati to'g'risida”³gi qonuni qabul qilingan. Ushbu qonunning 3-moddasiga muvofiq “Sug'urta — muayyan voqea (hodisa) yuz berganda yetkazilgan zararining o'rnini qoplash, tovonlar va boshqa to'lovlar to'lash uchun maqsadli pul jamg'armalarini tashkil etish hamda ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan, jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlarini himoya qilishga doir munosabatlar” majmui tushuniladi.

Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida “Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan quyidagi yettita ustuvor yo'nalishdan iborat “2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”⁴ ishlab chiqildi. Taraqqiyot strategiyasida 2022-yil va keyingi yillarda iqtisodiyot sohasida amalga oshirish zarur bo'lgan dasturiy va maqsadli vazifalarga bag'ishlanib, maqsadlarning uchinchi yirik guruhi “Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash” deb nomlandi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining puxta ishlab chiqilganligi, iqtisodiy islohotlar maqsadi va vazifalarini belgilab beradi. Belgilangan vazifalarni amalga oshirishda sug'urta sektorining rolini oshirish, iqtisodiyotning real sektori, tashqi va ichki investitsiyalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni sug'urta yo'li bilan himoyalashning xalqaro tajribasini o'rganish va muhokama qilish, fuqarolarga ko'rsatiladigan sug'urta xizmatlarini rivojlantirish va aholining sug'urta madaniyatini oshirish, sug'urta bozorini tartibga solishning prudensial normalarini takomillashtirish hamda sug'urta faoliyatini raqamlashtirish va axborot xavfsizligini ta'minlash borasida bir qancha maqsadlar kiritilgan.

Sug'urta munosabatlarini rivojlantirish zamonaviy iqtisodiy tizimlar faoliyatini olib borishda strategik muhim vazifa hisoblanadi. Barqaror sug'urta tizimi milliy iqtisodiyotning rivojlanishini rag'batlantiradi.

Sug'urta tizimini nazariy jihatdan tadqiq etishda sug'urta va sug'urta faoliyatiga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Ma'lumki sug'urta jismoniy va yuridik


³ O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 23 noyabrdagi “Sug'urta faoliyati to'g'risida”gi qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.11.2021-y., 03/21/730/1089-son

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28 yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-sonli Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.02.2023-y., 06/23/21/0085-son



shaxslarning mulkiy manffatlarini himoya qiluvchi samarali vosita sifatida insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida mavjud bo'lgan.

Sug'urta moliyaning integratsiyalashgan shakllaridan hisoblanadi. Dunyoning yirik sug'urta kompaniyalari, birgalikda sug'urtalash va qayta sug'urtalash operatsiyalarini amalga oshirish uchun birlashadilar. Ko'pgina mamlakatlarda xorijiy sug'urta kompaniyalarini milliy bozorlarga kirishiga ruxsat etilgan. Masalan, 1992 yildagi Mاستrixt shartnomasiga asosan, Yevropa mamlakatlarida xorijiy kapitalni cheklash bo'yicha barcha to'siqlar olib tashlandi va Yevropada yagona sug'urta bozorini shakllantirishga qaratilgan tadbirlar boshlandi. Shunday bo'lsada, milliy sug'urta bozorlari o'ziga xos xususiyatlarni saqlab qolmoqda. Bu xususiyatlar birinchidan, sug'urta sohasining tarkibi va taklif etilgan sug'urta himoyasining turlariga taalluqlidir



1-rasm. Sug'urta kompaniyalarining tashkiliy shakliga ko'ra tavsifi

Muhim vazifalarni bajarish uchun avvalo sug'urta sohasida jahon talablariga javob beradigan xodimlarni tayyorlash va ularni amaliyotga tayyorlash, aholini sug'urta to'g'risidagi axborotlardan xabardor qilib borish muhim hisoblanadi. Amalda sug'urta bozorining rivojlanishiga to'siq bo'ladigan ko'plab sabablar mavjud bo'lib, bunday sabablardan biri monopol holatning yuzaga kelishidir. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda monopoliyaning yuzaga kelishiga nisbatan xavfsiz holat sifatida bir tarmoqda faoliyat ko'rsatuvchi kompaniyalar soni kamida o'n va undan ortiq bo'lib, bunda bu bozordagi bir kompaniyaning hissasi sug'urta xizmatlarini sotish bo'yicha 31 foizdan oshmasligi, ikki kompaniyaning hissasi 44 foizdan oshmasligi, uchta kompaniyaning hissasi 54 foizdan oshmasligi va to'rtta kompaniya ulushi 64 foizdan oshmasligi kerak.

Bunday nisbat buzilgan holatda bu kompaniyalarga nisbatan davlat iqtisodiy sanksiyalar qo'llaydi va ularning ishtirokini ushbu bozorda chegaralab qo'yadi. Sug'urta



bozorini davlat tomonidan tartibga solishning elementlaridan biri bozordagi raqobatni sun'iy ravishda yo'qotish, ya'ni boshqa qatnashchilarni bu bozorga kirishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida ikki yoki undan ortiq kompaniyalarning o'zaro til biriktirishi va o'zaro kelishuvlariga yo'l qo'ymaslikdan iboratdir.

Raqobatning nosog'lom usul va vositalari bo'lmish tariflarni sun'iy ravishda oshirish yoki pasaytirish, sug'urtalanuvchilarga sug'urtaning ma'lum bir turi to'g'risida yoki ushbu turni amalga oshiruvchi o'z raqobatchilari to'g'risida yolg'on ma'lumotlar berib, ularni arosatga qo'yish mumkin bo'lmagan holatlardir. Bunday holatlarga nisbatan davlat qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar vositasida doimiy qarshi choralar ko'rib borishi kerak.

O'zbekistonda davlatning sug'urta sohasi bo'yicha faoliyati keng ko'lamli bo'lib, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitidan kelib chiqib davlat aralashuvi samaradorligining yuqori bo'lishini ta'minlash uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

- sug'urta himoyasini ta'minlashda yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini o'zida mujassamlashtirgan mexanizmni ishlab chiqish;

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi qoshida tashkil etilgan maxsus vakolatli davlat organi bilan sug'urtachi sub'ektlar o'rtasidagi hamkorlik, muammoli masalalarni birgalikda hal etuvchi o'zaro manfaatdorlik asosida ishlovchi tuzilmali mexanizmni shakllantirish;

- sug'urta faoliyatiga doir qonunlar majmuasiga zarur o'zgartirishlar kiritish bilan qonunlarni takomillashtirib borish;

- milliy sug'urta bozorida raqobat muhitining yuzaga kelishini ta'minlovchi, soxta sug'urtachilar faoliyatiga chek qo'yuvchi huquqiy me'yorlarni ishlab chiqish hamda ularning tatbiq etilishini ta'minlash;

- sug'urta kompaniyalari barqaror faoliyat ko'rsatishlarini ta'minlash vositasi sifatida soliq imtiyozlari va boshqa rag'batlantiruvchi huquqiy asoslarni takomillashtirib, ularning samarasi yuqori bo'lishiga erishish;

- sug'urtalovchilarning qimmatli qog'ozlar bozori, fond birjalaridagi to'g'ridanto'g'ri faoliyatlarini rag'batlantirish;

- sug'urta sohasida xalqaro hamkorlik aloqalari kengayib borayotgan hozirgi sharoitda tomonlar manfaatlarini o'zida aks ettiruvchi sug'urta himoyasining umumiy qoidalarini ishlab chiqish;

- sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilish tizimini takomillashtirishda chet el investorlarining faoliyatini rag'batlantirishni nazarda tutib ish olib borishni yo'lga qo'yish;

- sug'urta faoliyati rivojlangan mamlakatlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish asosida xalqaro bozorga kirib borish va bu bozorda o'z o'rniga ega bo'lishni maqsad qilib qo'yish;



- respublika sug'urta bozorida yangi sug'urta institutlari (anderrayterlar, aktuariylar, avariya komissarlari) ko'payishini rag'batlantirishdan iboratdir. Xorij tajribasida sug'urta va qayta sug'urta kompaniyalari har bir sug'urta turi bo'yicha alohida sug'urta anderrayterlariga ega bo'lib, biror marta ham bir anderrayter ikki xil sug'urta turi bilan shug'ullanmaydi.

Respublikamizda sug'urta munosabatlarida uchrayotgan asosiy muammolarga sug'urta summasini to'lashni rad etish, sug'urta xizmatlarida zamonaviy yondashuvning yo'qligi, davlat aralashuvining ko'pligi, majburiyatlarning tomonlar kelishuvisiz belgilanishi, sug'urtalovchini tovon to'lash majburiyatidan ozod qilinishi qonunda belgilab qo'yilganligi, nizolarni hal qilishning alternativ usullarining taklif qilinmasligi, shartnoma erkinligi ta'minlanmaganligi va undagi munosabatlarda cheklovlarning ko'pligi kabilar kiradi.

Aynan ushbu muammolar, tomonlar orasida turli kelishmovchiliklarga, munosabatlardagi keskinlikka va pirovardida sug'urta tashkilotining ishonchsizligiga olib kelmoqda.

Sug'urta munosabatlarini tartibga solishning erkinlashuvi jarayonlari dunyo sug'urta bozori globallashuvi sharoitida, xalqaro sug'urta xizmatlarining erkinlashuvi, sug'urta va qayta sug'urta kapitalining kontsentratsiyasi yirik transmilliy sug'urta kompaniyalari o'rtasidagi raqobatning keskin kuchayishiga, natijada sug'urta va qayta sug'urtaning ko'plab yangi shakllari paydo bo'lishiga, sug'urta, bank va moliya kapitalining o'sishiga olib kelmoqda.

Sug'urtachilar faoliyati ustidan davlat nazorati tizimida bir qancha o'zgarishlar yuz bermoqdaki, bunda asosiy mavqeni davlatlararo integratsion kelishuvlar, xizmatlar savdosi to'g'risidagi bosh kelishuv egallanmoqda. Internet vositasidagi yangi informatsion muhitning paydo bo'lishi davlatlar o'rtasidagi chegaralarni buzib tashlab, sug'urta xizmatlarining misli ko'rilmagan darajalariga erishilmoqda. So'ngi yillarda dunyo sug'urta bozorining kengayishi kuzatilib, bunda birlashuv, globalizatsiya va integratsiya jarayonlarining kuchayganligini ko'rish mumkin. Sug'urta kompaniyalarining birlashuvi yoki yirik kompaniyalarning kichiklarini qo'shib olish holatlarining yuz berishiga asosiy sabablar quyidagilardan iborat:

Birinchidan, milliy va dunyo sug'urta bozorlari ishtirokchilari orasida yuqori darajadagi kapitalizatsiyaga ega bo'lgan kompaniyalarning ko'pligi va ular o'rasida kuchli raqobatning mavjudligi.

Ikkinchidan, yirik tavakkalchiliklarni sug'urtalash va qayta sug'urtalashda katta miqdordagi kapitalga ega bo'lgan kompaniyalarga zarurat tug'ilmoqda. Sug'urtachilar qayta sug'urta kompaniyalarini tanlashda birinchi o'rinda ularning kapitali miqdoriga etibor qaratmoqdalar. 50 mln. dollardan kam kapitalga ega bo'lgan qayta sug'urta kompaniyalari o'z faoliyatlarini to'xtatishga majbur bo'lmoqdalar.



Sug'urta bozorini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini uning makro va mikrodarajadagi iqtisodiy munosabatlarning o'zaro bog'liq kesimlarida ko'rib chiqiladigan boshqaruv jihatlarini takomillashtirmasdan turib amalga oshirib bo'lmaydi. Muallif tomonidan olib borilgan tadqiqot quyidagi xulosalar va tavsiyalarni shakllantirish imkonini berdi. Sug'urtaga nisbatan tizimli yondashuv, bir tomondan iqtisodiy munosabatlar subyektlarining mol-mulkini himoya qilish manfaatlari, fuqarolar shaxsiy sohasining o'ziga xos xususiyatlari, alohida ijtimoiy tuzilmalarning faoliyatning ehtimoliy qaltisliklaridan shuningdek ijtimoiy maqomning o'zgarishi munosabati bilan daromadlarni yo'qotish qaltislik himoya qilish manfaatlari bilan, ikkinchi tomondan esa, tarmoq siyosati va sug'urtalovchilarning tanlangan strategik yo'llari bilan belgilanadigan sug'urta kompaniyalari xo'jalik yuritishning tashqi va ichki shartlari bilan belgilanadigan qator muhim xususiyatlarini aniqlab berdi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, respublikada sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilishning normativ-huquqiy bazasini xalqaro talablarga javob beradigan darajada shakllantirish davlatimiz uchun ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi va berilgan takliflarni amalga oshirish jarayonida davlat va tegishli organlarning faol ishtiroki talab qilinadi.

Mamlakatimizda sug'urta bozorini rivojlantirish masalalari o'rganish natijasida quyidagi xulosalar shakllandi:

Birinchidan, bugungi kunda mamlakatimiz milliy sug'urta bozori nisbatan tez rivojlanayotgan bo'lsada, bugungi kun jahon talablariga to'liq javob bera olmaydi.

Ikkinchidan, sug'urta xizmatidan foydalanayotgan va foydalanishi mumkin bo'lgan aholining aksariyat qismi, sug'urta haqida to'liq ma'lumotga ega emas. Holbuki, bu sug'urta turiga talabning ortishi sug'urtalanuvchi va sug'urtalanuvchiga moliyaviy holatini yaxshilashda o'zining salmoqli xissasini qo'shadi.

Yuridik shaxslar sug'urta qildirishi uchun, birinchi navbatda, ularga ishonch kerak. Jismoniy shaxslarga esa to'g'ri ma'lumot. Ma'lumotlar to'g'ri va to'liq bo'lishi ularni sug'urtadan to'g'ri va maqsadli foydalanishga jalb qiladi. Bu jarayonni amalga oshirish uchun sug'urta bozoriga malakali mutaxassislar talab etiladi. Sug'urta kompaniyalarida faoliyat yuritayotgan aksariyat hodimlar sug'urta ishining mutaxassisi emas. Bir bo'lim xodimi ikkinchi bo'lim xodimining faoliyati, amalga oshirayotgan ishlari haqida ma'lumotga ega emas. Agentlar faoliyatida ham xuddi shunday muammo mavjud. Natijada sug'urtalanmoqchi bo'lgan shaxsga sug'urta xizmatlari to'g'ri va to'liq yetkazilmaganligi natijasida aholi to'liq ma'lumotga ega bo'lmasdan sug'urtaga bo'lgan talabning pasayishi va faoliyatga nisbatan ishonmaslik holatlari yuzaga kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28 yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi



- PF-60-sonli Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi,; 10.02.2023-y., 06/23/21/0085-son.
2. Yadgarov A.A. Bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urta tizimi. – Toshkent. Yangi asr avlodi,-2005.
 3. Sharapova M. Iqtisodiy islohotlar sharoitida O'zbekiston Respublikasida su'urta bozorini rivojlantirish yo'llari. Science and Education/№3.2022 Mehmonov S.U., Karimova Z.X., Tursunov A.S; "Bujet tizimi" Darslik, T.; "Iqtisod-moliya", 2018 yil. 544 bet.
 4. Shermuhammedov A., Oxunova G., Jo'rayev O. Xalqaro transport sug'urtasi.- T.:TDIU,2000
A.V.Vaxobov, S.A.Tashmatov, N.X.Xaydarov. Moliyaviy savodxonlik asoslari: o'quv qo'llanma/-Toshkent 2013.
 5. Internet saytlari:
www.gov.uz
www.mf.uz
www.tfi.uz